



Tilimizga boshqa tildan kirib kelgan neologizmlar Qo'ziboyeva Go'zal Saidrasul qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va Adabiyoti
universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti III kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6664332>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

telefon, teletayp, telefaks,
kompyuter, bank,
subsidiya, kredit, mobil
ilova.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda tilimizga kirib kelgan va so'zlashuvda faol ishlatilayotgan neologizmlar va ularning tasnifiga qaratilgan mulohazalar, ularning o'zbekcha muqobiliga almashtirish masalalari atroflicha o'rganilgan. Maqolada tilimizga kirib kelgan neologizmlarning ma'nosi tahlili berilgan. Bu neologizmlar asosan ingliz tilidan kirib kelayotgani va bu neologizmlarning turlari keltirilgan.

Kirish. (Introduction) Hozirgi texnika va texnologiya asrida eng qimmatbaho narsa bu – axborotdir. Uning turli xil shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: rasm, grafik, diagramma yoki, texnikada amalga oshadigan barcha ko'rinishlarda. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar

bazasi, bilimlar ombori va u bilan bog'lik faoliyat sohalari tashkil qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mehmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohasini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jaraeni 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

1. Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
2. Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarishni axborotlashtirish.
3. Tashkiliy- iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.



4. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini axborotlashtirish.

5. Talim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

Bugungi kunda zamon ham tezashmoqda va bu axborot almashinuvining ham tezlashishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo'layotgan ma'lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma'lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan neologizmlar tilning shakily ravishda o'zgarishiga olib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). Etimologik jihatdan neologizm atamasi yunon tilidan olingan. U tarkib topgan neo "yangi" degan ma'noni anglatadi va logotip bu "so'z" ga aylanadi. Demak, bu so'z "yangi so'z" deb tarjima qilingan yoki "til ichidagi innovatsion yoki so'nggi ob'ekt, vaziyat yoki harakatni tavsiflovchi "so'z" deb tarjima qilingan. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo'layotgan ma'lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma'lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan neologizmlar tilning shakily ravishda o'zgarishiga olib kelmoqda. Ularga birgina bank sohasi doirasida oladigan bo'lsak anchagina salmoqqa ega so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Deyarli barchasi ingliz yoki boshqa tillardan aslidek olingan so'zlar hisoblanadi. Neologizmlarning turlari mavjud bo'lib: 1) Shaklning neologizmlari. Ushbu turdagi neologizm so'zlarning yoki tilda mavjud bo'lgan so'zlarning morfologik o'zgarishidan kelib chiqadi. Misol: fotojurnalistika, ijtimoiy nasroniy, liberal demokrat yoki popemobil. 2) Semantik neologizmlar. Bunday holda, u allaqachon tilning bir qismi bo'lsa-da, boshqa sohalarning elementlari yoki jihatlarini belgilash uchun boshqa ma'no yoki ma'noda

bir xil tilda olingan so'zlarni nazarda tutadi.

Misol: qidiruv tizimi, virusli, parket yoki virus. 3) Funktsional neologizmlar.

Neologizmlarning bu tasnifi tilga so'zlarni qo'shish zarurati bilan bog'liq, chunki ma'lum bir ob'ekt yoki vaziyatni belgilashning boshqa usuli yo'q. Chet el so'zlari ushbu tasnifga kiradi. Umuman olganda, ushbu turdagi atamalar aloqa yanada dinamik bo'lishiga imkon beradi.

Misol: kilo, jirafa, tirtil yoki yong'inga qarshi. 4) Ijtimoiy neologizmlar. Ushbu

so'zlar jamiyatga, insonning axloqiy va madaniy harakatlariga bog'liq ba'zi jihatlarini tavsiflovchi yoki belgilaydigan barcha so'zlar bilan bog'liq. Misol: qo'mita, ish tashlash, yig'ilish yoki jamoaviy bitim. 5) Texnologik neologizmlar. Ushbu turdagi

neologizm ba'zi so'zlar texnologiya va fan sohalarida yuzaga keladigan burilishlar bilan bog'liq. Ular deyarli har doim boshqa tillardan keladi, masalan, ispancha ingliz tilidan. Ushbu tasnif bugungi kunda eng ko'p ishlatiladiganlardan biridir. Misol: skaner, server, selfi yoki kibermakon. 6) Stilistik neologizmlar. Stilistik neologizmlar

- bu odatda ishlatiladigan so'zlarga nisbatan ifoda yoki atamaga nisbatan sezgir va ijobiy ohang berish uchun qo'llaniladigan so'zlar. Aks holda, ular narsalar idrokini o'zgartirish uchun mo'ljallangan so'zlardir. Misol: marhum, qorong'i, ko'r yoki konsert.

Hozirda barcha sohalarda mavjud bo'lgan va muomalaga hech qanday qiyinchiliklarsiz kirib kelgan neologizmlar haqida tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu so'zlar texnika orqali tilimizga kirib keldi va biz bu so'zlarni hech qanday muammosiz talaffuz qilmoqdamiz, ma'lumot tashiyotgan ma'no doirasi ham barcha bir xil ma'noda tushunarli. Lekin savol tug'iladi. Hozirda muomaladagi neologizmlar o'rniga tilimizda mavjud



bo'lgan muqobiliga almashtirish va bu kabi tilimizga keyinchalik ham kirib keladigan neologizmlarni muomala jarayoniga olib kirmasdan ilgariroq tilizdagi muqobiliga almashtirish. Demak, hozirda tilshunoslikdagi katta muammolardan biri – neologizmlardir. Bizni oldimizda ikkita bajariladigan ish mavjud bular: hozirda muomalada bo'lgan neologizmlarni o'zbek tilidagi muqobiliga almashtirish va bu muqobilning muomalada ijobiy qabul qilinishiga erishish. Ikkinchidan, texnika asrida tilimizning sofligini saqlash maqsadida keyinchalik kirib kelayotgan neologizmlarni muomalaga kirmasdan ilgari o'zbekcha muqobilini yaratish va bu ishni amalga oshirishda tilimizni rivojlratiradigan barcha tashkilotlarga birdek ma'suliyat yuklashdir. Avvalambor, xalqimiz o'zligini saqlashi bu tilimizga bevosita chambarchas bog'liqdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Abonement – biror narsa (teatrda o'rin, kutubxona, telefon)dan muayyan muddatgacha foydalanish huquqi.

Agentlik – biron-bir muassasaning mahalliy bo'limi, shuningdek ayrim axborot, vositachilik va sh.k. muassasalarning nomi (mas, telegraf agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Jahon" axborot agentligi va hokazo).

Aksent- begona chet tilida gapirayotgan odamning nutqi; musiqada tovush yoki akkordlarni ajratib ko'rsatish.

Akkaunt – apparat (kompyuter yoki telefon) egasi ekanligini tasdiqlovchi elektron pochta.

Antiseptik – teri, gavda bo'shliqlari, jarohat yuzasi va boshqa joylardagi kasallik qo'zg'atuvchi mikroblarga nisbatan kushandalik xususiyatiga ega moddalar

Audiobook – ovozlashtirilgan kitob.

Autsorsing – firma faoliyatiga xizmat ko'rsatish funksiyasining bir qismini boshqa bajaruvchi tshkilotga berish.

Audit – korxona, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib borish, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazishdir.

Aura- inson atrofini o'rab turgan himoya chizig'i yoki nur.

Avtorizatsiya – ro'yxatdan o'tish.

Blog – web-saytning bir ko'rinishi bo'lib, undagi maqolalar xronologik tarzda yoziladi.

Blogger – internetda shaxsiy blog yaratib va uni boshqaruvchi va o'z blogiga har kuni yangi maqolalar qo'shib boradigan inson.

Blokcheyn – tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya.

Boomerang – aqliy hujum metodlaridan biri.

Bluetooth – qisqa masofaga simsiz aloqa texnologiyasi.

Bot – "robot" so'zining qisqartmasi. Bot ("robot" so'zining qisqartmasi) — qo'lda bajarilishi ko'p vaqt talab qiladigan, bir xil tipli bo'lgan amallarni bajarish uchun maxsus dastur.

Brauzer – veb-saytlarni ko'rib chiqish, ular bilan ishlash, kiritish va bir sahifadan ikkinchisiga o'tish uchun mo'ljallangan programma ta'minoti.

Brend – kompaniya nomi, logosi, ranglari, simvollari, stili va boshqa vizual atributlari. "Boulevard" aslida fransuzchada "xiyobon" degani. Lekin bizda yangi qurilayotgan markazlar nomiga qo'yilyapti.

Deadline – vazifa bajarish uchun berilgan muddat

Debat – muhokama

Dostavka – yetkazib berish xizmati

Call-markaz – ishonch telefonlari



CEFR-(Common European Framework of Reference for Languages – Umumiy Yevropa Til Ko'nikmasi Qolipi) tizimi butun Yevropa bo'ylab ishlatiladigan tillarni o'rganish, o'rgatish va baholashga doir masalalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kundagi globallashuv va zamonaviy texnologik vositalar yordamida odamlarning bir-birlari bilan oson aloqa o'rnatishlari natijasida CEFR tizimi nafaqat Yevropada, balki Kolumbiya va Filippin kabi davlatlarda ham keng tadbiriq etilayapti. O'zbekistonda ham Prezidentning 2012-yildagi Qaroridan so'ng ingliz tilini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan talab sezilarli darajada ko'tarildi hamda buning natijasi o'laroq yangi, milliy NSFLA tizimi CEFR asosida tashkil etildi.

city-shahar

Chat – internetda bevosita gaplashish sayti yoki portal

Coffee-break – kofe ichish uchun tanaffus

Cover – qo'shiq ijrosiga o'zgartirish kiritish

COVID-19 – og'ir o'tkir nafas olish sindromi koronavirusi keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik

Dekorativ - bezak uchun mo'ljallangan go'zallik.

Distributor (ing. distributior — taqsimlash) — mintaqaviy (mahalliy) bozorlarda muayyan turdagi tovarlarni ko'tara sotib olish va sotish bilan shug'ullanuvchi firma yoki tadbirkor.

DSc- Fanlar doktori

Diler – mahsulotni ulgurji sotib olib, uni chakana yo'l bilan yoki kichik partiyalarda foydasiga sotuvchi biznes ishtirokchisi

Domen – cheksiz internet ummonidagi serverlardan birida joylashgan qaysidir saytga olib boradigan manzil

Download – yuklash

Ekopark – ko'ngilochar maskan

Energetik- quvvat beruvchi

Elsevier-Scopusning ishlab chiqaruvchisi va egasi

Emoji-SMS va veb-sahifalarda ishlatiladigan videogrammlar va kulgichlarning grafik tili e-mail– Elektron pochta

Faol nuqta – mobil internetni WiFi qilib tarqatish

Fast food – tez tayyor bo'ladigan yegulik

Facebook- ijtimoiy tarmoqlar veb-sayti va foydalanuvchilarning fikrlari, fotosuratlar va veb-saytidagi yangiliklar yoki boshqa qiziqarli kontentlarga link berishlari, o'yin o'ynashlari, jonli suhbatlashishlari va jonli videolarni ko'chirishlari mumkin bo'lgan xizmatdir. Hatto siz xohlagan narsangiz bo'lsa, Facebook bilan ovqatni ham buyurtma qilishingiz mumkin. Birgalikdagi kontentni ommaga ochiq deb qabul qilish mumkin yoki uni faqat tanlangan do'stlar guruhi yoki oila a'zolari yoki bir kishi bilan bo'lishish mumkin.

Fitness-yaxshi jismoniy shaklni saqlashga imkon beradigan mashqlar .

Forex - xalqaro valyuta birjasi; online bozor Forum ~ ochiq tarzda munozara va bahs o'tkazish vositasi.

Franshiza - tayyor biznes reja; sotiladigan biznes rejalar paketi

Gadjet – kichik, qo'lda olib yursa bo'ladigan qurilma

Galereya – mobil telefonlardagi media to'plami

Gibrid – aralash dars turi

Gif – animatsiyalangan rasm

Google- Amerikaning internetga oid xizmatlar va mahsulotlar, jumladan, onlayn reklama texnologiyasi, qidiruvi, dasturiy ta'minot va apparatura sohasidagi ixtisoslashgan ko'p tilli texnologiya kompaniyasi. U Amazon, Apple va Facebook bilan birga Katta To'rtlik texnologiya kompaniyalaridan biri sanaladi.



Google Scholar — ilm-fan, maorif, referat, diplom, kurs, doktorlik ishlari tog'risidagi maqolalarni topishga yordam beradi.

GPS -Global Pozitsiyalash Tizimi - bu sun'iy yo'ldoshning navigatsiya tizimi bo'lib, uning foydalanuvchisi uchun barcha sohalarda joylashuv va vaqt haqida ma'lumot va iqlim sharoitlarini yaratadi

Grin karta~Grin karta (shuningdek, Yashil karta, grinkard, ingl. green card, rasmiy nomi: United States Permanent Resident Card) — AQSh fuqorosi bo'lmagan shaxsning, AQShda yashash huquqini beruvchi, shaxsiy guvohnoma yoki identifikatsion karta. Ushbu "yashil karta" bir necha yil, ko'p bosqichli hujjatlar to'plamidan so'ng beriladi.

Hashtag – foydalanuvchilarga qidiruv yordamida tegishli ma'lumotlarni topishga imkon beruvchi belgi. Hashtag yoki heshteg - ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi xabarlarini mavzu bo'yicha toifalarga ajratish uchun ishlatiladigan yorliq.

Hemis – talabalar davomati saqlanadigan va o'zlashtirish kabi masalalar berib boriladigan zamonaviy bir dastur

Hi-Tech –“yuqori texnologiyalar” degan ma'noni anglatadi(buni kiritsa bo'ladimi bilmadim)

Haker (inglizcha: hack — ya'ni chopish, boltalash) — informatsion texnologiyalar bo'yicha favqullotda malakaga ega mutaxassis. Kompyuter sistemasini o'ta chuqur biladigan shaxs. Avval boshdan

haker degan atama kompyuter dasturlarini tezda yoza oladigan, yoki qurumlarni tezda so'zlay oladigan dasturchilarga nisbatan ishlatilgan

Boshida ta'riflanganidek, neologizm - bu ma'lum bir tilda bo'shliqni to'ldirish yoki yangi tushunchaga nom berish uchun paydo bo'ladigan har qanday so'z. Shuningdek, u ma'lum bir guruh yoki g'oyaning lingvistik ehtiyojlariga javob berish uchun kelib chiqadi, agar til bunga imkon bersa.

Hozirda “balans”, “mobil ilova”, mobil dastur” subsidiya” kabi qator so'zlarni barcha aholi bir xil ma'noda anglaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, aholi qatlaming faol muomala vositasiga oz fursatlarda erisha olgan bu so'zlar tilimizrivojlanish darajasini belgilab bermoqda. Aslida til shevalar va qaysi bir xalq tilida mavjud leksemalar orqali boyisa bu tilning foydalanish doirasi ham shuncha keng va mustahkam bo'ladi. Hozirda biz ona tilimizga kirib kelayotgan barcha chet el so'zlarini aslidek qabul qilaverish oqibatida tilimizning foydalanish doirasini ham shunchalik qisqartirib borishimizni anglab yetishimiz darkor. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar o'tib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni soflicha saqlash uchun chet el leksikonidagi so'zlarning ishlatilishini cheklash lozim.

References:

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.:200
2. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobitdinov S. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati.
3. Z. Baratov Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. Bitiruv malakaviy ishi.
4. H. Dadaboyev. O'zbek terminalogiyasi. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2019.